



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA MUVAFAQIYAT QOZONISHDA OILA IJTIMOIIY MUHITINING AHAMIYATI.

**Umidjon Xomidjonov**

*Fan va texnologiyalar universiteti v. b. dotsenti  
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. (PhD)  
email: [umidjon.xamidjonov.80@bk.ru](mailto:umidjon.xamidjonov.80@bk.ru)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola inson kapitalini rivojlantirishda oila institutining ahamiyati tahlil etilgan. Oilalarda farzand tarbiyasi va ularning ta'lim olishlariga oiladagi ijtimoiy muhit va iqtisodiy resurslarning ta'siri, shuningdek maktabdagi infrastruktura obek'tlarining ahamiyati ilmiy o'rganilgan. Oilada shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv makoni sifatida uning xarakteri, qadriyatlari va maqsadlari ilmiy asoslantirilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, maktab, ta'lim jarayoni, ijtimoiy qadriyatlar, inson kapitali, infrastruktura, soft skills, ijtimoiy kapital qo'llab quvvatlash, ta'lim tarbiya ilm, ma'rifat

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ СЕМЬИ В РАЗВИТИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА И ДОСТИЖЕНИИ УСПЕХА.**

**Умиджон Хомиджонов**

*Университет науки и технологий, и.о. доцент доктор философии по социологии.  
(PhD) email: [umidjon.xamidjonov.80@bk.ru](mailto:umidjon.xamidjonov.80@bk.ru)*

**Аннотация:** В статье анализируется значение института семьи в развитии человеческого капитала. Научно изучено влияние социальной среды и экономических ресурсов в семье на воспитание детей и их образование в семьях, а также значение объектов школьной инфраструктуры. Семья как пространство первичной социализации личности научно обоснована ее характером, ценностями и целями.

**Ключевые слова:** семья, школа, образовательный процесс, социальные ценности, человеческий капитал, инфраструктура, soft skills, поддержка социального капитала, образовательная наука, просвещение

**THE IMPORTANCE OF THE FAMILY'S SOCIAL ENVIRONMENT IN DEVELOPING HUMAN CAPITAL AND ACHIEVING SUCCESS**

**Umidjon Khomidjonov**

*Acting Associate Professor, University of Science and Technology  
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology  
Email: [umidjon.xamidjonov.80@bk.ru](mailto:umidjon.xamidjonov.80@bk.ru)*





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

**Annotation:** *This article analyzes the importance of the Family Institute in the development of human capital. The influence of the social environment and economic resources in the family on the upbringing of children in families and their education, as well as the importance of infrastructure facilities in the school, has been scientifically studied. The family is scientifically justified as the space of primary socialization of the individual, where his character, values, and goals are formed.*

**Keywords:** *family, school, educational process, social values, human capital, infrastructure, soft skills, social capital support, educational science, enlightenment*

**Kirish:** Inson kapitali zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, global raqobat, bilimlar iqtisodiyoti va texnologiyalar tez sur'atlarda rivojlanayotgan hozirgi davrda shaxsning malakasi, bilim va ko'nikmalari uning mehnat bozoridagi o'rni va turmush darajasini belgilaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson kapitalini rivojlantirishda oilaning ijtimoiy muhiti hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston sharoitida ham oila jamiyatning asosiy tarkibiy bo'g'ini sifatida bolaning ta'limi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishda markaziy vazifani bajaradi. Davlat tomonidan oilani qo'llab-quvvatlash, yoshlarning ta'lim va kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish bo'yicha keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilayotgani mazkur mavzunung ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, oila ijtimoiy muhitining inson kapitalini rivojlantirishga ta'sirini chuqur tahlil qilish, milliy hamda xalqaro tajribalar asosida ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy va ijtimoiy fanlarda alohida nazariy yo'nalish sifatida shakllandi. Unda shaxsning bilim, malaka, sog'liq va ijtimoiy ko'nikmalari uning iqtisodiy faolligi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini belgilaydigan asosiy resurs sifatida qaraladi. Bu jarayonda oila nafaqat iqtisodiy qo'llab-quvvatlovchi muhit, balki ijtimoiylashuv, madaniy meros va ta'limiy imkoniyatlar manbai sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda oilaning ijtimoiy vazifalarini mustahkamlash, ta'lim sifatini oshirish va yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar milliy rivojlanish strategiyalarining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv makoni sifatida uning xarakteri, qadriyatlar va maqsadlariga asos bo'ladi. Ijtimoiy muhit esa bu jarayonni kengaytirib, shaxsning imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashi yoki, aksincha, cheklashi mumkin. Bugungi globallashuv, urbanizatsiya va axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanish davrida muvaffaqiyatning an'anaviy omillari o'zgarib bormoqda. Avvallari moddiy boylik va iqtisodiy imkoniyatlar asosiy mezon bo'lib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda bilim, malaka, ijtimoiy kommunikatsiyalar va innovatsion fikrlash qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oilaning tarbiyaviy roli va ijtimoiy muhitning qo'llab-quvvatlash





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

tizimlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Nemis sotsiolog olimi Maks Vebberning ta'kidlashicha, muvaffaqiyat — bu shaxsning o'z hayotiy maqsadlariga erishish darajasi bo'lib, u subyektiv va obyektiv mezonlarga ega. Sotsiologik nuqtai nazardan muvaffaqiyat jamiyat tomonidan tan olingan yutuqlar majmuasidir<sup>51</sup> Abraxam Maslou fikriga ko'ra, muvaffaqiyat ichki motivatsiya, shaxsiy ehtiyojlarni qondirish va o'z-o'zini rivojlantirish bilan bog'liq<sup>52</sup>. Jamiyatda muvaffaqiyat mezonlari vaqt va makon omillariga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, sanoat davrida iqtisodiy boylik asosiy ko'rsatkich bo'lgan bo'lsa, postindustrial davrda bilim, kreativlik va ijtimoiy tarmoqlar orqali ta'sir o'tkazish salohiyati yetakchi o'ringa chiqdi.

Fransuz sotsiologi Pierre Bourdieu talqiniga ko'ra, Oila — insonning eng yaqin ijtimoiy instituti bo'lib, uning ijtimoiylashuv jarayonidagi birinchi maktabidir. 1986 yilda Bourdieu tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy kapital nazariyasida yozilishicha, oila farzandlarga nafaqat moddiy resurslar, balki ijtimoiy aloqalar, madaniy qadriyatlar va bilimlarni ham meros qilib qoldiradi<sup>53</sup>.

Oila inson hayotidagi birinchi va eng muhim ijtimoiy institut sifatida shaxsning qadriyatlari, axloqiy meyorlari va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Oila shaxsning jamiyatga integratsiyalashuvini ta'minlovchi boshlang'ich maktabdir. Oila nafaqat moddiy resurslar, balki hissiy qo'llab-quvvatlash, psixologik barqarorlik va motivatsion zamin yaratish orqali muvaffaqiyatga zamin hozirlaydi.

Bolalik davrida oilada o'rganilgan qadriyatlar, mehnatga munosabat, intizom va maqsadga intilish odatlari shaxsning butun hayoti davomida muvaffaqiyatga erishish jarayonida yetakchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, tadqiqotlar ko'rsatishicha, bolaligida ota-onasi tomonidan mehnatsevarlik, mas'uliyat va mustaqillik ruhida tarbiyalangan yoshlar keyinchalik professional sohada yuqori yutuqlarga erishadi. AQShlik iqtisodchi olimlar James J. Heckman va Tim Kautzlar inson kapitalini rivojlantirishda oila muhitini ta'siriga doir qiziqarli ilmiy tadqiqotlar o'tkazishgan. Heckman va Kautz ta'kidlashicha, inson muvaffaqiyati faqat akademik bilimlar (IQ, matematika, til bilimi) bilan emas, balki sabr-toqat, intizom, ijtimoiy moslashuvchanlik, mas'uliyatlilik, o'zini nazorat qilish kabi xarakter xususiyatlari bilan ham belgilanadi.


Tadqiqotlar ko'rsatadiki, bolaning 0–5 yosh orasidagi davrida oiladagi muhit, tarbiya va stimullar uning keyingi hayotidagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onaning ta'lim darajasi, mehr-muhabbati, intizom berish usuli va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bola xarakteri va kognitiv qobiliyatlarini shakllantiradi<sup>54</sup>. Heckman va Kautz ta'kidlaydilar, kam ta'minlangan oilalardagi bolalar ko'pincha iqtisodiy va ma'naviy resurslar yetishmasligi sababli, boy oilalardagi tengdoshlariga nisbatan rivojlanishda orqada qoladi.

<sup>51</sup> Weber, M. (1968). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. New York, NY: Bedminster Press. (Original work published 1921)

<sup>52</sup> Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York, NY: Harper & Brothers.

<sup>53</sup> Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of theory and research for the sociology of education* (pp. 241–258). New York, NY: Greenwood.

<sup>54</sup> Heckman, J. J., Moon, S. H., Pinto, R., Savelyev, P. A., & Yavitz, A. (2010). *The rate of return to the High/Scope Perry Preschool Program*. *Journal of Public Economics*, 94(1–2), 114–128





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS


Heckmanning iqtisodiy tahlillari shuni ko'rsatadiki, bolaning ilk rivojlanish bosqichida investitsiya kiritish katta yoshdagi ta'lim yoki qayta tayyorlash dasturlariga qaraganda ancha yuqori iqtisodiy foyda keltiradi. Ular erda bolalik ta'limiga sarflangan 1 dollar keyinchalik jamiyatga 7–10 dollar foyda keltirishi mumkinligini hisoblab chiqishgan. Heckman va Kautz birgalikda insonning muvaffaqiyati faqat testlar bilan o'lchanadigan IQ yoki akademik bilimlarga emas, balki g'ayrikognitiv ko'nikmalarga — intizom, sabr-toqat, jamoada ishlash qobiliyati, motivatsiya va mas'uliyatga ham juda katta darajada bog'liq ekanini ilmiy asoslashgan.

Ular ko'plab empirik tahlillarda *soft skills* ni rivojlantirish uchun erda yoshdagi ta'lim, oila muhiti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlari samaradorligini ko'rsatgan.

Ular olib borgan tadqiqotlar asosida AQSH va bir qator Yevropa davlatlarida yoshlar siyosati va ta'lim dasturlari qayta ko'rib chiqilgan deyish mumkin.


Yurtimizda esa inson kapitalini rivojlantirish va farzandlarimizning kelajakda muvaffaqiyatli inson bo'lishlarini ta'minlashda oiladagi ijtimoiy muhit qanday ta'sir ko'rsatishiga doir sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilganda quyidagi natijalar olingan.

O'quvchilarning oilalaridagi ijtimoiy muhit, o'quvchilarning ovqatlanish ratsioni, to'yib ovqatlanmaslik, ijtimoiy tengsizlik kabi qator omillar ularning ta'lim olishiga ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. So'rovnoma natijalariga ko'ra yurtimizdagi 6.40% o'quvchilarning xonadonlarida ilmiy va badiiy kitoblar mavjud emas 32% o'quvchilarning xonadonlarida esa 10 tadan kam ilmiy yoki badiiy kitoblar bor, 14.60% o'quvchilarning xonadonida esa kitob javoni yo'q, 10.60% o'quvchilarning uyida yuvinish uchun dush yoki vanna mavjud emas, 10% o'quvchilarni uyida muzlatgich yo'q<sup>55</sup>. Mazkur raqamlar va oiladagi ijtimoiy vaziyat, ota onalarning farzand ta'limiga bo'lgan munosabati o'quvchilarni o'rab turgan ijtimoiy borliq ham inson kapitaliga ta'sir ko'rsatishini tushuntirib beradi.



PISA tadqiqotlarida ishtirok etgan o'quvchilarning oilaviy sharoiti to'g'risida ma'lumot


<sup>55</sup> (<https://www.oecd.org/publication/pisa-2022-results/country-notes/uzbekistan-2bb94bf1>)





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Masalan O'zbekiston Respublikasi 2022 yilda butun dunyoda maktab ta'limi sifatini baholovchi xalqaro PISA tadqiqotida ilk marotaba ishtirok etdi. Natijalarga ko'ra, matematika yo'nalishida yurtimiz o'quvchilari 81 davlat orasidan 364 ball bilan 72-o'rinni egalladi.




**2022 yilda matematika savodxonligi bo'yicha PISA tadqiqotlarida davlatlar ishtiroki (Erishilgan natijalar ball ko'rinishida berilgan. Diagramma muallif tomonidan ishlangan)**

Yuqori o'rinlarni Singapur, Xitoy, Yaponiya singari davlatlar egallagan. O'zbekistonlik o'quvchilar 2-yo'nalish o'qish savodxonligi bo'yicha 336 ball bilan 80-o'rinni egallagan. O'zbekistonga o'xshash eng past natijalarni Kosova, Iordaniya, Marokash va Kambodja o'quvchilari ko'rsatgan. 3-yo'nalish tabiiy fanlar savodxonligi bo'yicha esa O'zbekiston 355 ball bilan 80-o'rinni egallagan. Yuqoridagi natijalardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda maktab ta'limi sifati qoniqarsiz axvolda. Fikrimizcha, bunday natijaga yetaklovchi ko'plab ijtimoiy iqtisodiy sabablar mavjud. Masalan maktablardagi infratuzilma obyektlari, kutubxona va undagi resurslar, sport zali va sport jixozlari, hojatxona va sharoiti, ichimlik suvi, kanalizatsiya, maktablarning isitish- yoritish tizimi bilan bog'liq muammolar. "Bugun kunda yurtimizda jami 10163 ta maktablar mavjud bo'lsa shundan 8842 nafarida kanalizatsiya, 3638 nafarida oshxona, 915 nafarida ichimlik suvi, 2300 nafarida sport zali mavjud emas. Shuningdek, 2886 nafar maktablar internet tarmog'iga ulanmagan bo'lsa, 1695 nafari mukammal ta'mirga muxtoj. 3000 nafar maktablarga esa qo'shimcha o'quv binolari qurish zarurati mavjud"<sup>56</sup>.


<sup>56</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022 yilning 28 yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi, 28.01.2022 <https://yuz.uz/>






### Yurtimizdagi maktablardagi mavjud sharoitlar haqida ma'lumot

PISA tadqiqotlarida ishtirok etgan o'quvchilarning oiladagi moddiy sharoitlari ularning ta'lim olishlariga ta'siri o'rganilganda esa o'quvchilarning o'rtacha 27% mablag' yetishmaganligidan haftada 1 marta o'qish jarayonlarida o'zlarini ovqatlanishdan tiyib yurishini 5% esa haftada 2-3 marta ovqatlanmasdan yurishini, 12% deyarli xar kuni maktabda o'qish mobaynida ovqatlanishga mablag'i bo'lmagligini ma'lum qilgan.



### “Oxirgi 30 kun ichida ovqat sotib olishga pul yetishmagani uchun necha marta ovqatlanmadingiz?”

Yuqoridagi taxlillardan ko'rish mumkinki, Oilaviy daromad darajasi, moddiy yetishmovchilik, nosog'lom ijtimoiy muhit, ajrim holatlari farzandning muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boyroq oilalar sifatli ta'lim, qo'shimcha kurslar, sport va madaniyatga oid to'garaklar, sog'liqni saqlash xizmatlari kabi imkoniyatlarni kengroq taqdim eta oladi. Ammo bu jarayonda faqat iqtisodiy resurslarning o'zi yetarli emas. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, past daromadli, ammo intellektual va axloqiy qo'llab-quvvatlashga boy oilalarda ulg'aygan bolalar ham yuqori





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

muvaqqiyatlarga erisha oladi. Demak, iqtisodiy holat va ijtimoiy kapitalning uyg'unligi muvaqqiyatning eng barqaror zaminini yaratadi. Oila ichidagi psixologik muhit — o'zaro hurmat, ishonch, hissiy qo'llab-quvvatlash — shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini va maqsadga intilishini kuchaytiradi. O'zbekiston jamiyatida oila qadriyatlari va ijtimoiy muhitning uyg'unligi milliy mentalitetning asosiy tayanchlaridan biridir. Oila institutining mustahkamligi, avlodlararo aloqalar, qarindoshlik rishtalarining kuchliligi yoshlarning muvaqqiyat sari intilishida muhim resurs bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Weber, M. (1968). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. New York, NY: Bedminster Press. (Original work published 1921)
2. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York, NY: Harper & Brothers.
3. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of theory and research for the sociology of education* (pp. 241–258). New York, NY: Greenwood.
4. Heckman, J. J., Moon, S. H., Pinto, R., Savelyev, P. A., & Yavitz, A. (2010). The rate of return to the High/Scope Perry Preschool Program. *Journal of Public Economics*, 94(1–2), 114–128
5. (<https://www.oecd.org/publication/pisa-2022-results/country-notes/uzbekistan-2bb94bfl>)
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022 yilning 28 yanvar kuni maktab ta'limini rivojlantirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi. Yangi O'zbekiston gazetasi, 28.01.2022 <https://yuz.uz/>

